

INSON HUQUQLARI VA KONSTITUTSIYA

*Erkinlik - bu har kim qonun ruxsat bergan narsani
qilishi mumkin bo‘lgan holatdir.*

Sharl Lui Monteskye

Ne‘matilloeva Sitorabonu Safar qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson huquq va erkinliklari masalasi zamonaviy demokratik jamiyatning asosiy qadriyati sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida insonning sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa bir qator huquqlari tahlil qilinadi. Konstitutsiyada belgilangan inson huquq va erkinliklarining jamiyatda qay tariqa talqin etilishi va amal qilinishi haqida keng va batafsil yoritib beriladi.

Tayanch so‘zlar: konstitutsiya, huquq, erkinlik, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi, fuqarolik huquqlari, huquqiy davlat, demokratiya, adolat, ijtimoiy adolat, insonga daxldor huquqlar.

Kirish: Inson huquqlari har bir demokratik davlatning tayanch ustuni hisoblanadi. Har bir shaxs tug‘ilishi bilanoq o‘z jamiyatida hurmatga loyiq bo‘lib yashashi, daxlsiz, xavfsiz hayot kechirishi, erkin fikrlash va o‘z fikrlarini hech qanday to‘siqlarsiz bayon qila olishi insoniy huquqlar kafolatlanishining asosiy belgilaridan biridir. Bunday huquqlar davlatning asosiy qonuni - Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilishi adolatli jamiyat barpo etishning asosiy omili hisoblanadi. Konstitutsiya Muqaddimasida inson huquq va erkinliklarining eng oliy qadriyat sifatida e‘tirof etilishi, inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etishni hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak vazifa sifatida belgilanishi ham bejizga emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va huquqiy hayotidagi eng asosiy hujjat bo‘lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini

himoya qilinishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiyaga kiritilgan inson huquqlari borasidagi o‘zgarishlar ushbu masalaga yondashuvning yangi bosqichini boshlab berdi. Yangilangan Konstitutsiyada fuqarolarning huquqlariga alohida urg‘u berilgan va inson huquqlari masalasiga chuqurroq e‘tibor berilib jamiyat markaziga olib chiqilgan. Maqolada 2023-yilda yangilangan Konstitutsiyada aks etgan inson huquqlari va erkinliklari, ularning mazmun-mohiyati, ijtimoiy hayotdagi o‘rni va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism: Dastlabki Konstitutsiya yaratilish tarixiga chuqur nazar solib qaraydigan bo‘lsak, 1878-yilda AQSHda qabul qilingan va yettita moddadan iborat bo‘lgan Konstitutsiya ham aslida, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish hamda davlat hokimiyatini adolatli va barqaror tashkil etish maqsadida yaratilgan. Bu esa jamiyatda barqaror muhitni yaratish va insonning qadr-qimmatini, sha‘ning qay darajada yuqori ekanligini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Bundan tashqari, inson oliy qadriyat sifatida ulug‘lanishiga 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini isbot sifatida keltirish mumkin. Deklaratsiyaning 1-moddasi quyidagicha jumla bilan boshlanadi: *Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng holda tug‘iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha munosabatda bo‘lishlari lozim.* Demak, har bir inson erkin va ozod yashashi, o‘z hayotini o‘zi qurishga haqli. Har bir shaxs boshqalarning huquqlarini hurmat qilishi va insoniy munosabatda bo‘lishi lozim.

Inson huquqlari haqida gap ketganda har bir inson eng avvalambor yashashga va har qanday suiqasddan qonun doirasida himoyalaniishga haqli. Yangilangan konstitutsiyamizning 25-moddasida keltirilganidek yashash huquqi har bir inson tug‘ilishi bilanoq vujuga kelib to bu olamdan ko‘z yumguncha davom etadigan asosiy ajralmas huquqlaridan biri sanaladi. Shuningdek, bugungi zamonaviy dunyoda aksariyat mamlakatlar inson hayotini vahshiylarcha tugatish usuli ya‘ni o‘lim jazosini o‘z jazo tizimidan chiqarib tashlagan. O‘zbekistonda ham o‘lim jazosi 2005-yil 1-avgustda Prezident farmoni bilan bekor qilindi. Ushbu farmonga ko‘ra, o‘lim jazosi 2008-yil 1-yanvardan boshlab umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazolariga almashtirildi. Bu esa boshqa davlatlarda qo‘llanilgani kabi insonning yashash huquqining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida insonga daxldor bo‘lgan huquqlar keng yoritilib berilishi bir qancha konfliktlarni bartaraf etishga ko‘maklashdi. Konstitutsiyaning 26-moddasida keltirilgan bandlar fuqarolarning qiynoqqa solinishidan, zo‘ravonlikdan, g‘ayriinsoniy va inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomaladan himoyalaniishi uchun yuridik asos sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari ushbu normada umuman yangi tushuncha shaxs roziligisiz unda ilmiy va tibbiy tajriba o‘tkazishni cheklash to‘g‘risidagi bandi normaning xalqaro huquqiy standartlarga to‘la muvofiqligini ta’minlaydi.

Har bir shaxs shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Shaxsiy daxlsizlik — bu har bir insonning o‘z shaxsiga, ya’ni tanasi, ruhi, mulki va shaxsiy hayotiga hech kim aralasha olmasligi, unga tajovuz qilinmasligi huquqidir. Bu huquq demokratik jamiyatlarda konstitutsiya va qonunlar bilan himoyalangan bo‘ladi. Ushbu huquq to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi yangilangan Konstitutsiyasining 27-moddasida keltirib o‘tilgan, unga ko‘ra ushbu huquq davlat muhofazasida. Bundan tashqari, jahon huquqiy standartlariga mos bo‘lgan “Miranda” qonuni haqida ham batafsil berilgan. Bu esa har bir shaxsning shaxsiy daxlsizlik huquqining huquqiy kafolati hisoblanadi.

Fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida Konstitutsiyaning 28-29-moddalari yuridik yordam, advokat xizmatidan foydalanish, aybsizlik prezumpsiyasi, sukut saqlash va boshqa huquqlari tushuntirib o‘tilgan. Shuningdek, xalq ongiga singib qolgan “qamalgan”, “sudlangan” degan qarashlar bilan sudlangan va uning yaqin qarindoshlarining ma’lum bir huquqlarini cheklashni bartaraf etish maqsadida shu kabi huquqlarga asosiy qonunimiz bo‘lmish yangilangan Konstitutsiyamizda alohida urg‘u berib o‘tilgan.

Ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘luvchi diniy qarashlarni normaga keltirish Konstitutsiyaning 35-moddasida har kimning istalgan dinga e’tiqod qilish yoki qilmasligi, shuningdek diniy qarashlarni majburan bosim va ta’sirlar bilan singdirishni qonun bilan cheklashi qat’iy belgilangan. Shu kabi bandlar xalqning diniy bag‘rikengligi va tolerantligini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, har bir inson mol-mulkka ega bo‘lish, mulkdor bo‘lish, o‘z mulkini erkin tasarruf etish va foydalanish huquqiga ega. Hattoki tug‘ilmasdan turib merosxo‘r bo‘la olishi mumkin. Shu kabi normalar konstitutsiyaning 41-moddasida qisqacha keltirib o‘tilgan. Bu esa shuni anglatadiki,

Konstitutsiya fuqarolarning mulkiy va nomulkiy huquqlarini himoya etilishini kafolatlovchi asosiy qonun hisoblanadi.

Xulosa: Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari – insonning erkin, tinch va munosib hayot kechirishi uchun asosiy mezondir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi nafaqat bu huquqlarni aniq belgilab bergan, balki ularning hayotda to‘liq ro‘yobga chiqishini ta‘minlashni ham o‘z zimmasiga oladi. Yashash huquqi, fikr bildirish erkinligi, ta‘lim olish va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati, shaxsiy daxlsizlik hamda adolatli sud himoyasidan foydalanish kabi huquqlar — fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligining ajralmas bo‘lagidir. Ushbu huquqlar to‘g‘risida bilimli bo‘lish, ularga amal qilinishini nazorat qilish esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va yuksak huquqiy madaniyat shakllanishiga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning o‘z huquqini tan olishi va uni himoya qilishga tayyor bo‘lishi – huquqiy demokratik jamiyat sari qo‘yilgan mustahkam qadamdir.